

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK JIHALTLARI

Yusupova Shohzoda Yunus qizi

2-kurs tayanch doktorant shahzodayusupova1996@gmail.com +998974955560

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika univeriteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14851110>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik jihatlari pedagogik muammo sifatida tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, kasbiy tayyorgarlik, metodik tayyorgarlik, bo'lajak o'qituvchi.

Abstract: In this article, the pedagogical aspects of improving the professional-methodical training of primary school teachers are studied as a pedagogical problem. It summarizes the opinions of foreign and domestic researchers. The principles, theoretical and pedagogical aspects of professional development of primary school teachers are scientifically based.

Key words: financial literacy, professional training, methodical training, teacher.

Аннотация: В данной статье педагогические аспекты совершенствования профессионально-методической подготовки учителей начальных классов изучаются как педагогическая проблема. Обобщены мнения зарубежных и отечественных исследователей. Научно обоснованы принципы, теоретические и педагогические аспекты профессионального развития учителей начальных классов.

Ключевые слова: финансовая грамотность, профессиональная подготовка, методическая подготовка, учитель.

Kirish. Respublikamizda so'ngi yillarda boshlang'ich sinf o'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish faoliyatining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, moliyaviy savodxonlikni shakllantirish, o'quv jarayonini o'qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarli asosida mazmunli tashkil etishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega¹ shaxs sifatida tarbiyalash, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanganlik dinamikasini nazorat qilish, o'quv dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim tizimi natijadorligini muntazam o'rganib borish va o'rganish natijalari yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni[1], O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni[2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son [3], 2017-yil

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: "O'zbekiston", 2016 y. 56 b.

7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son [4], 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son[5] farmonlari, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” PQ-3160-son[6], 2021 yil 25 yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4963-son[7] qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-son qarori[8] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha metodika ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirish imkoniyatlari takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari moliyaviy savodxonlikni shakllantirish dasturini takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish modeli takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining moliyaviy savodxonlikni shakllantirish samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari ilmiy o‘rganilganligi va tahlil qilinganligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari, uni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanganligi hamda ishlab chiqilgan takliflardan foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-pedagogik tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qilganligi, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli o‘quv mashg‘ulotlari sifatiga qo‘yiladigan talablar mazmunini takomillashtirishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Bo‘ljak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining yaxlitligini ta’minlash shaxsning madaniy tajribasi yaxlitligi, uning obyektiv va subyektiv jihatlari yaxlitligi haqidagi qoidaga asoslanadi. Mazkur kompetentlikni shakllantirish yaxlit jarayoni, shu tariqa, o‘zga tilli madaniyat va ingliz tili o‘qitish sohasida to‘plangan ijtimoiy-madaniy metodik tajribani egallash jarayonlari birligi; shuningdek, talaba shaxsining kasbiy lingvistik ta’limda kasbiy faoliyat subyekti sifatida rivojlanish yaxlitligini ta’minlashga chaqirilgan.

«Shaxsning kasbiy tajribasi» kategoriyasi tadqiqotimizda talabanning bo'lajak o'qituvchi sifatida shakllanish jarayoni va natijasi, shuningdek, mazkur jarayonni tashkil qilish sifatini oshirishni tavsiflaydi. Bu kategoriya ta'lim makonida ta'lim oluvchilarning, motivlar, bilimlar, ko'nikma va malakalar, shuningdek, kasbiy kommunikatsiya normalarida mustahkamlangan, yaxlit kasbiy tajribasini shakllantirishga yo'nalganlikni aks ettiradi.

Pedagogik an'anaga muvofiq, tadqiqotimizda *didaktik* shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlikni samarali shakllantirishga ko'maklashadigan chora-tadbirlar tizimi sifatida qoraladi. Mazkur sharoitlar kasbiy tayyorgarlikda integratsiya mohiyatini batafsilroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda didaktik shart-sharoitlarning ikki asosiy guruhi taqdim qilindi:

- kasbiy metodik faoliyatni yaxlit o'zlashtirishni uning (motivatsiyali, maqsadli, mazmunli-instrumental, refleksiv) tarkibiy qismlari to'liqligini shakllantirish orqali pedagogik-psixologik ta'minlash;
- bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligi (KK) bosqichli rivojlanishi va kasbiy tajribani egallashda anglashilganlik, faollik va mustaqillikning tobora yuqori darajalariga o'tishiga ko'maklashadigan kasbiy tayyorgarlikni tashkiliy-texnologik ta'minlash.

Mazkur shart-sharoitlar tavsiflariga batafsilroq to'xtalamiz.

Birinchi shart-sharoit kasbiy faoliyatni uning barcha komponentlarini shakllantirish vositasida o'zlashtirishga ko'maklashadi. Yaxlitlik har qanday pedagogik tizimning bazaviy tavsifi va eng muhim tizimli belgisi sanaladi. Bunda hodisaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydi. Yaxlitlik – xossa emas, atribut (belgi) emas, balki o'ziga xos qarash, u umumiylik, bog'liqlik, ajralmaslikni topish imkonini beradi. Aynan bitta reallikni sifat xilma-xilligi, tenglashtirilmaslik, tafovut orqali, ammo ayni vaqtda uni ontologik yaxlitlik sifatida ham tavsiflash mumkin. Yaxlitlik insonga berilmaydi, balki uning tomonidan egallanadi. Bir xususiy yaxlitlikdan boshqasiga o'tib borar ekan, inson ma'lum darajada o'z idealini realizatsiyalaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning OTM ta'lim jarayonida kasbiy yaxlitlikka erishishi *kasbiy faoliyatning* barcha komponentlari didaktik ta'minlanishi bilan bog'liq. Bu komponentlar:

- motivatsiyali (bo'lajak o'qituvchilarni fan mazmunni tushunish, qabul qilish, o'zlashtirish; fanni o'qitish uchun metodik kompetensiyani shakllantirish va dolzarblashtirishga undash);
- maqsadli (kasbiy kompetentlikni kommunikatsiya va fanni o'qitishga oid qadriyatli tajriba sifatida ongli shakllantirish, faol realizatsiyalash va rivojlantirishni rag'batlash);
- mazmuniy-instrumental (bilim, kommunikativ va kasbiy faoliyat ko'nikma, malaka va usullarini, kasbiy kompetent shaxsni tavsiflaydigan sifatlarni belgilash va rivojlantirish);
- refleksiv-baholash (kasbiy faoliyatni tashqi baholash bilan bo'lajak o'qituvchilarning o'zini o'zi baholashini birlashtirish).

Kasbiy mahorat, bugungi kunda biz tushunganimizdek, qobiliyatni o'z ichiga oladi, aniq va sodda muloqot qilish, bilimlarni taqdim etish, shuningdek, talabanning bilish faoliyatini aqlli va nozik o'tkazish, uni to'g'ri yo'nalishda boshqarish, kasbiy bilimlarni mustaqil ravishda egallashga o'rgatish. O'qituvchi o'z mavzusini chuqur bilishdan tashqari, o'quvchi /talabanning ichki dunyosiga kirib borishga qodir. U psixologik kuzatuvchanligi va g'ayrati bilan ajralib turadi. O'qituvchi uchun eng muhim axloqiy talab - bu o'z o'quvchilariga bo'lgan muhabbat tuyg'usi.

Xulosa. Jamiyatning ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivojlanishi, inson shaxsini rivojlantirishga tobora ortib borayotgan talablar, o'zgaruvchan ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarga tez va adekvat javob berish qobiliyati, o'z faoliyatini qayta qurishga tayyorligi va yangi, yanada murakkab muammolarni mohirona hal qilishga tayyorligi bilan belgilanadi. O'z-o'zini rivojlantirishning ma'nosi bilim faoliyati qoniqishida, o'qituvchining ortib borayotgan ehtiyojida, uzluksiz ta'lim orqali o'zini o'zi anglashda namoyon bo'ladi. O'z-o'zini rivojlantirishning mohiyati aqliy mehnatning texnikasi va madaniyatini, muammolarni bartaraf etish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlash, shu jumladan kasbiy mahoratni o'zlashtirishdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637 sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi O'RQ-406 son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4963-son qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-son qarori.